

**VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQBUZARLIKKA QARSHI
BARQARORLIGINI TA'MINLASH CHORALARI VA PROFILAKTIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Xudoyorov Umidjon Dagarovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,

Sirdaryo viloyati Yuridik texnikum o'qituvchisi,

3-darajali adliya maslahatchisi

Telefon: +998 (99) 475 72 02, Umidjondagarov@gmail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14528991>

Annotatsiya. "Jinoyatchilik va voyaga yetmaganlar" muammosi an'anaviy ravishda asosan bir jihatdan, ya'ni voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy xavfliligi nuqtayi nazaridan o'rganilishi, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyatchilikning ijtimoiy xavfliligi, bu jihat deyarli o'rganilmaganligi va voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasini takomillashtirishga ehtiyojning mavjudligi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, zo'ravonlik qurbonlari, huquq madaniyat, tarbiya, qonun, yoshlar, insonparvarlik, jinoyatchilik, jinoiy tahdiddan himoya qilish, jinoiy tajovuz.

**IMPROVING MEASURES TO ENSURE THE STABILITY OF JUVENILE
DELINQUENCY AND PREVENTION**

Abstract. The issue of "Juvenile Delinquency" is traditionally studied mainly from one perspective, namely the social danger of juvenile delinquency, the social danger of crime against minors, which has hardly been studied, and the need to improve the prevention of juvenile offenses.

Key words: minors, victims of violence, law, culture, education, law, youth, humanism, crime, protection from criminal threats, criminal violence.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕР ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ УСТОЙЧИВОСТИ
НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ К ПРАВОНАРУШЕНИЯМ И ИХ ПРОФИЛАКТИКЕ**

Аннотация. Проблема преступности и несовершеннолетних традиционно изучается главным образом в одном аспекте, а именно с точки зрения социальной опасности преступности несовершеннолетних, социальной опасности преступности в отношении несовершеннолетних, того факта, что этот аспект практически не изучен и что существует необходимость в совершенствовании профилактики правонарушений несовершеннолетних.

Ключевые слова: несовершеннолетние, жертвы насилия, право, культура, образование, закон, молодежь, гуманизм, преступность, защита от криминальных угроз, криминальное насилие.

Rivojlangan davlatlar uchun insonning umuminsoniy huquq va erkinliklarini hurmat qilish kafolati sifatida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning harakatlari ustidan ijtimoiy nazorat shakllarini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan davlatimiz jinoyatchilikka qarshi kurashda turli profilaktika subyektlari (davlat hokimiyati organlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi, unda ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlari) va huquqbuzarlar o'rtasida profilaktika faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, shuningdek jinoyatlarni samarali aniqlash va tergov qilish, zarur tadqiqotlar va ekspertizalar (masalan, DNK tekshiruvlarini) o'tkazish, jinoyat izlarini qayd etish uchun zarur bo'lgan zamonaviy texnik vositalar va uskunalalar bilan ta'minlash borasida ham ijobiy xorijiy tajribadan foydalanishi kerak (3-D skanerlar), keng tarqalgan "Xavfsiz shahar" elektron tizimlarini joriy etish va shu kabilarni amalga oshirish eng muhim maqsadimiz bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda respublikamizda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yangi tizimi "Xavfsiz shahar", "Xavfsiz turizm", "Xavfsiz xonadon" tizimlari joriy etildi hamda 24 soatlik patrul xizmati yo'lga qo'yildi¹, shuningdek, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni"ning joriy etilganligi hamda zamonaviy transport va aloqa vositalarining yaratilishi, texnik ta'minotning yaxshilanishi, jamoat joylariga videokuzatuv moslamalari o'rnatilishi² bu borada juda qo'l kelmoqda.

"Jinoyatchilik va voyaga yetmaganlar" muammosi an'anaviy ravishda asosan bir jihatdan, ya'ni voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy xavfliligi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyatchilikning ijtimoiy xavfliligi haqida gapirganda, bu jihat deyarli o'rganilmagan. Biroq, ko'pincha voyaga yetmaganlarning kriminogen va viktimogen xulq-atvori o'rtasidagi chegara juda harakatchan bo'lib qoladi.

Shuning uchun biz voyaga etmaganni jinoiy tahdiddan himoya qilish obyekti sifatida ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu tahdid bir tomondan jinoyatchining niyatida ikkinchi tomondan voyaga etmaganning o'zida yotadi. Voyaga etmagan shaxs o'zining ijtimoiy va fiziologik jihatdan yetuk emasligi, vaziyatni baholay olmasligi ko'r-ko'rona qiziqishi, turli xil vasvasalarga qarshi barqaror bo'lmasligi sababli, ular ko'pincha jinoyat sodir etishi, jinoyat faoliyatiga jalb etilishi yoki jinoyatning qurboniga aylanishi mumkin.

¹ Asosiy maqsad - aholining tinch va osyishta hayotini ta'minlash // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yilning 10-yanvar kuni mamlakatimiz tinchligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish borasidagi kelgusi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. URL:<http://www.uza.uz>.

² A. X. Xalilov, Jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati, mazmun-mohiyati, maqsad va prinsiplari O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. — 2019. — № 3. B 45.

Voyaga yetmaganlarni tarbiyalash majburiyatini bajarmaslik muammosini E.I. Chelyabova ko'rib chiqib, profilaktika, tarbiyalash, rehabilitatsiya va boshqa nazorat choralari o'z ichiga olgan bolalarni jinoiy-huquqiy va ijtimoiy-kriminalogik himoya qilish tizimini (ayniqsa oilaviy munosabatlar sohasida) shakllantirish zarur degan xulosaga keladi. Bu o'z navbatida voyaga yetmaganlar jinoyatlarining profilaktikasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan subyektlarga bo'lgan ehtiyojni taqozo etadi, ular orasida kriminologlar, (yuristlardan tashqari) psixologlar, pedagoglar madaniyat va ijtimoiy xizmat xodimlar va boshqalarni o'z ichiga oladi³.

Ushbu tadqiqotning obyekti — jinoiy tajovuzlardan himoyalash muammosi bo'lib u voyaga yetmaganlarni jinoiy tajovuzning tashqi va ichki tahdidlaridan himoya qilishni shuningdek jinoiy tajovuzdan himoya qilish tizimining tabiati va imkoniyatlarini ifodalaydi. Tadqiqot predmeti jinoiy tajovuzlardan himoyalash, xavfsizlik tizimining holatini belgilovchi huquqiy, iqtisodiy, madaniy, tashkiliy, manaviy va boshqa xarakterga ega bo'lgan ichki (shaxsiy) va tashqi (uning atrofidagi muhit) aloqalarini o'z ichiga oladi va voyaga yetmaganlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirishda hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.03.2017-yildagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2833-sonli qarorida, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari hozirgi kun talablariga to'liq javob bermayotganligi ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu qarorda davlat idoralari aksariyat hollarda huquqbuzarliklar profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, oqibatda ushbu faoliyatga lozim darajada e'tibor qaratmayotganligi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalarni bermayotganligi. Vakolatli organlarning yetarli darajada tashabbus ko'rsatmayotganligi, lozim darajadagi idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning o'zaro nomutanosibliigi, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni talab etishi⁴ belgilab berilgan.

Yurtimizda barcha bolalar zo'ravonlikdan qonun bilan himoyalangan.

³ Челябова Э.И. Уголовно-правовой и криминологический анализ неисполнения обязанностей по воспитанию несовершеннолетних (по материалам Республики Дагестан): Дис...канд. юрид. наук: 12.00.08. — Махачкала, 2006. С-5.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.03.2017-yildagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-sonli Qarori

O'zbekiston Respublikasining 07.01.2008-yildagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-139-sonli qonunida bola huquqlarining kafolatlari tartibga solingan. Unga ko'ra Har bir bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi⁵. Bundan tashqari bu yo'nalishdagi eng katta va xalqaro ahamiyatga ega hujjat sifatida amal qiluvchi 1924 Jenevada qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya"da bolalar huquq va majburiyatlari, uning shaxsiga nisbatan bo'ladigan munosabatlarga keng tarzda izoh berilgan.

Biroq shuni alohida e'tiborga olish kerakki, yuqirida keltirilgan javobgarlikni o'zida aks ettiruvchi JK va MJTK normalarining blanket dispozitsiyasi sifatida mazkur Qonunning 10-moddasi 4-xatboshisida davlat bolaning shaxsi, uy-joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiya va zo'ravonlikning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qiynoqlarga solishdan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr -qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, huquqbuzarliklar va g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etishga jalb etilishidan himoya qilinishini amalga oshirishi belgilangan⁶. Lekin, ushbu qonun va normativ huquqiy hujjatlarda jismoniy, jinsiy va ruhiy zo'ravonlik, shahvoniy shilqimlik tushunchalariga ta'rif berilmagan. Shuni inobatga olgan holda ushbu Qonunining 3-moddasidagi asosiy tushunchalarni tadqiqot ishimizda ko'rsatib o'tilgan zo'ravonlik turlarini aniqlashtiruvchi tushunchalar bilan to'ldirish lozimdir.

Konstitutsiyamizning 77-moddasi Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Ota-onalar zimmasiga farzand tarbiyasi bo'yicha bir qator majburiyat yuklash bilan birga, boladan ota - onaning ko'rsatmalariga, ular agar bola manfaatlariga to'g'ri kelsa, amal qilishini talab qilish zarur. Ota-onalar ham, farzandlar ham ushbu majburiyatlarni lozim darajada bajargan holdagina kelgusida ijobiy natijaga erishish mumkin.

Voyaga yetmaganlarni jinoiy faoliyatga jalb qilinishini oldini olishda ota-onalarning mas'uliyatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Bolalik har bir bolaning hayotidagi ajralmas va muhim bosqichdir, chunki bu davrda shaxs sifatida shakllanadi.

Yomon jamoaga tushib qolish bolaga salbiy ta'sir ko'rsatishini tushunish juda muhim,

⁵ O'zbekiston Respublikasining 07.01.2008-yildagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-139-sonli Qonuni, 11-modda

⁶ O'zbekiston Respublikasining 07.01.2008-yildagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-139-sonli Qonuni, 10-modda

ijtimoiy jihatdan ijobiy jamoaga tushib qolish esa ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Salbiy ta'sirlar voyaga yetmaganlarning keyingi rivojlanishiga zarar yetkazadi, shaxsiyatni tiklashga uzoq vaqt talab qilishi mumkin. Bolaning miyasi qurilish va tuzilish bosqichidan o'tadi, spirtli ichimliklar va mast qiluvchi moddalarning miyaga zararli ta'siri uning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va mantiqiy va fikrlash jarayonlarini sekinlashtiradi.

Texnikaning rivojlanishi va yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi faqat ijobiy omil emas. Zamonaviy qurilmalar yordamida voyaga yetmaganlarni jinoyat qilishga jalb qilish, ularga ruhiy va jismoniy zarar yetkazish mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda "qiziqishlar" bo'yicha guruhlar mavjud bo'lib, u yerda spirtli ichimliklar iste'moli, giyohvand va boshqa psixotrop moddalarni iste'mol qilish targ'ib qilinadi, "tushunchalar" bo'yicha hayot, qamoqxona tamoyillari, jinoyatga oid xulq-atvor ulug'lanadi, shuningdek, ekstremistik faoliyatga jalb qilish ham amalga oshirilishi mumkin, buning oqibatida yuzlab taqdirning buzilishi va minglab o'lim holatlari sodir bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.10.2018-yildagi 848-son Qarori bilan tasdiqlangan "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta'minlashga doir ma'muriy va tashkiliy chora-tadbirlar, dasturiy-apparat va texnika vositalariga doir talablarni belgilash to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, bolalar o'rtasida tarqatilishi taqiqlangan axborot mahsuloti tele va radiouzatish orqali soat 6:00 dan 22:00 gacha tarqatilishi taqiqlanadi⁷.

Ayrim davlatlar, ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyati turli yo'llar, usullar bilan ta'minlanadi. Ushbu sohada har bir davlat o'ziga xos ilg'or tajribaga ega bo'lib, ularni o'rganish hamda yurtimiz jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimiga tatbiq etish bugunning dolzarb talablaridan biridir⁸.

AQSHning "Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasi va sudlovi to'g'risida"gi⁹ qonuni (2002-y.) muhim ahamiyat kasb etadi. AQSHda voyaga yetmaganlar huquqlarini kafolatlashga oid qonunlarning kodifikatsiya qilinganligi bu boradagi masalaga davlatning aniq pozitsiyasi mavjudligini yaqqol ko'rsatadi. Xususan, Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari to'g'risidagi federal kodeksda¹⁰ voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarni sud tartibida hal etish mexanizmlari belgilab qo'yilgan.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.10.2018-yildagi "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta'minlashga doir ma'muriy va tashkiliy chora-tadbirlar, dasturiy-apparat va texnika vositalariga doir talablarni belgilash to'g'risida"gi 848-son Qarori

⁸ Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: yurid. fan. d-ri. ... dis. - T., 2019. - 294 b. B. 217.

⁹ Juvenile Justice and Delinquency Prevention Act of 2002 // [Elektron manba]: <https://www.ojdp.gov/about/ojdpact2002.html>.

¹⁰ Federal juvenile delinquency code // [Elektron manba]: <https://www.justice.gov/jm/criminal-resource-manual-117-federal-juvenile-delinquency-code>.

AQSHda oiladagi zo‘ravonlik qurbonlari uchun 1,5 mingta markazlar, alohida uylar tashkil qilingan bo‘lib, ushbu markazlarga oiladagi zo‘ravonlikdan jabrlangan, uyida oila a‘zolari tomonidan kaltaklangan, xo‘rlangan, jabr-zulmga duchor bo‘layotgan ayollar, qariyalar, voyaga yetmaganlar murojaat qiladi¹¹.

AQSHda 40 mingdan ortiq politsiya idora-agentliklari bo‘lsada, mamlakatda ularning boshqarilishini muvofiqlashtirib boruvchi markaziy politsiya idorasi mavjud emas. AQSHda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta‘minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalari asosan shtatlarga yuklatilgan¹². Jinoyatchilikka qarshi kurashishning «mutlaq murosasizlik» (“zero tolerance”) doktrinasi tatbiq etilgan. Ilgaridan joriy etilgan uch bo‘g‘inli (federal, shtat va mahalliy darajadagi) huquqni muhofaza qilish tizimida faoliyat olib boruvchi politsiya xodimlarining 60 % mahalliy bo‘g‘in hisobiga to‘g‘ri keladi. Ular aholi bilan bevosita hamkorlikda ish olib boradi¹³.

XX asrning 90-yillarida mamlakatdagi barcha innovatsion resurslar jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan: 1) jinoyatchilikni barvaqt oldini olishni ta‘minlash maqsadida jamoatchilikning qo‘llab-quvvatlashiga erishish uchun politsiyani mahalliy aholiga yaqinlashtirishga qaratilgan ijtimoiy yo‘naltirilgan ishlarni kuchaytirish; 2) o‘ta og‘ir turdagi jinoyatlar uchun jazo tizimini keskin kuchaytirish; 3) ommaviy axborot vositalarida murosasizlik doktrinasi bo‘yicha «Jinoyat to‘xtatilishi kerak, sodir etilgan jinoyat jazolanadi» tamoyili yuzasidan jamoatchilik fikrini shakllantirish¹⁴. Ushbu sayi harakatlar natijasida jinoyatchilik ko‘rsatkichining umumiy holatini sezilarli pasayishiga olib kelgan.

Davlatning uchinchi tez o‘sayotgan shahri hisoblanuvchi Virjiniya-Bichda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu yerda maxsus dastur tatbiq etilgan bo‘lib, ushbu dasturda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tanishtiruvchi o‘quv kursi 4-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan ushbu dastur o‘z ichiga: qonun hamda jinoyatchilik, turar-joy xavfsizligi, do‘kondagi o‘g‘irlik, bosqinchilik va shaxsiy xavfsizlik kabi 6 ta mavzuni olgan 3 hafta davom etuvchi mashg‘ulot- lardan iborat maxsus kurs o‘tkaziladi, yakunida o‘quvchilarga sertifikat va nishon berish nazarda tutiladi. Kursning o‘ziga xos xususiyati mashg‘ulotlarning o‘quvchilar xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida politsiya xodimlari tomonidan olib borilishidir. Dastur mualliflarining fikricha, ularning asosiy maqsadi bolani

¹¹ Murodov A. Sh. “Ichki ishlar organlarining oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish”, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi-T., 2019. - B. 98.

¹² Майоров В.И. Организация деятельности по охране общественного порядка в США, странах Европы и России: Учебное пособие. - Челябинск, 2003. - С. 17.

¹³ Кваши В.Е. Основные тенденции преступности в США // Научный портал МВД России. - 2012. - № 1. - С. 54.

¹⁴ Гордеев А.Ю. К вопросу о положительном опыте предупреждения преступлений в зарубежных странах//Matters of Russian and International Law. - 2017. - Vol. 7. - P. 117.

yoshligidan ijtimoiy hodisalarni to'g'ri baholashga o'rgatish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial xavfdan qochish va politsiya bilan munosabatga kirishish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat¹⁵.

AQSHning Florida shtati huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan ishlab chiqilgan hamda davlat va xususiy sektorda joriy etilgan huquqiy ta'lim dasturi ham e'tiborga loyiq. 7-8-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan ushbu dastur shaxsning jamiyatdagi qadriyatlar tizimida tutgan o'rni, fuqaroning majburiyatlari va jinoyat huquqi asoslari, huquq- tartibotni buzuvchilarni kutayotgan jazoga doir bilimlarni shakllanti- rishga qaratilgan. O'rganilgan dasturlarning barchasi voyaga yetmaganlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishga shu orqali jinoyatchilikni oldini olishga maxsus yo'naltirilganligini ko'rish mumkin¹⁶.

AQSHda ijobiy natija bergan maxsus dasturlardan yana biri yoshlar o'rtasida giyohvandlikni oldini olishga qaratilgan bo'lib, uning yordamida so'nggi 15 yilda giyohvandlik moddalarini iste'mol qiluvchilarning ko'rsatkichi 50 %ga kamayishiga erishilgan. Davlatda giyohvandlikka qarshi kurashuvchi 3,5 ming jamoatchilik tashkiloti faoliyat yuritadi¹⁷. Ushbu davlatda mazkur sohada samarali faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar ulushi ham yuqoriligini ko'rish mumkin. Jumladan, 1991-yilda tashkil etilgan "Xalqaro hayotiy moslashtirish (International life skills)" tashkilotiga dunyoning 27 ta (jumladan, Avstraliya, Kanada, Xitoy, Germaniya, Fransiya, Italiya) davlatlari a'zo bo'lib, mazkur dastur yoshlarning hayotiy bilimlarini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan¹⁸.

O'rganilayotgan yo'nalishdagi rivojlangan mamlakatlar (shu jumladan, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Avstraliya) tajribasi shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligi ularda tatbiq etilgan maxsus dastur hamda loyihalarga bevosita bog'liqdir. "Qo'shnilar nazorati (neighborhood watch)", «Jinoyatchilikni to'xtatamiz (crimes toppers)», «Tashqi muhitni tashkil etish orqali huquqbuzarliklar profilaktikasi dasturi (Crimeprevention throughen vironment design (broken window) (Huquqbuzarliklar profilaktikasini tashqi muhitdan kuzatuv ostiga olish (siniq oynalar)», "Safety City (Xavfsiz shahar)" kabi dasturlar shular jumlasidan bo'lib, bugungi kunda amaliyotda ijobiy natijalar berib kelayotganligini kuzatish mumkin¹⁹.

¹⁵ Гусейнов А.Б. Профилактика правонарушений несовершеннолетних за рубежом // [Электрон манба]: <https://www.twirpx.com/file/1172281/> (мурожаат вакти: 17.01.2020 й.).

¹⁶ Дорожднова Д.Н. Регулирование вопросов по организации профилактики правонарушений несовершеннолетних в зарубежном законодательстве: история и современность // Вестник Саратовской государственной юридической академии. - 2017. - № 5 (118). - С. 195.

¹⁷ Кицул И.С., Перфильева Н.В. Отечественный зарубежный опыт профилактики наркомании среди населения // Сибирский медицинский журнал. - 2005. - № 5. - С. 6.

¹⁸ Менделевич В.В., Муганцева Л.В. Распространенность наркомании среди подростков в Российской Федерации // Наркология. - 2003. - № 6. - С. 2-6.

¹⁹ Головкина А., Потоцкий Н. Зарубежный опмт разработки программ профилактики правонарушений // [Электрон манба]: <https://pandia.ru/text/78/094/83215.php>.

Shu kabi loyiha va dasturlarning ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi mamlakatimizda kelgusida ushbu sohada o'zining ijobiy natijalarni beradi deb hisoblayman.

Yuqoridalargi ma'lumotlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi profilaktikasini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ular jamiyatning barqarorligi va kelajak avlodning sog'lom tarbiyasini ta'minlash yo'lida aniq yo'nalishlarni belgilab beradi. Ushbu takliflar quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

Tadqiqotlar yo'nalishlarini belgilash muammolarning chuqur tahlili: Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi sabablari, psixologik omillar, ijtimoiy muhit ta'sirini o'rganuvchi ilmiy tadqiqotlar sonini oshirish.

Empirik tadqiqotlar: Konkret hududlardagi huquqbuzarliklar dinamikasini tahlil qilish va real ma'lumotlar asosida yechim taklif qilish.

Tadqiqot natijalarini jamoatchilikka yetkazish: Ota-onalar, o'qituvchilar va mahalla faollarini xabardor qilish orqali profilaktika samaradorligini oshirish.

Qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini samarali yo'lga qo'yish: Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishga oid qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.

Ta'lim va jazoning alternativ usullari: Huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlar uchun majburiy ta'lim dasturlari va qayta ijtimoiylashtirish dasturlarini joriy etish.

Nazorat mexanizmlari: Profilaktika ishlari bilan shug'ullanuvchi idoralar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va nazorat tizimini kuchaytirish.

Ijtimoiy qadriyatlar tizimining ta'sirchanligini oshirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash: Ota-onalarga bolalar tarbiyasi bo'yicha ta'lim va maslahat xizmatlarini ko'paytirish.

Axborotlarni tarqatish subyektlari: Jinoyatchilikning zarari va huquqbuzarliklar oqibatlari haqida yoshlar o'rtasida targ'ibot ishlarini tashkil qilish.

Mahalla va jamoat tashkilotlari: Mahalliy jamoatchilikni bolalar tarbiyasi va profilaktika ishlariga faol jalb etish.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, aqlli monitoring tizimlari: Sun'iy intellekt orqali jinoyatchilikka moyillikni aniqlash va oldini olish.

Virtual platformalar: Ommaviy ta'lim platformalari orqali huquqiy savodxonlik va axloqiy tarbiya berish.

Mobil ilovalar va interaktiv o'yinlar: Bolalar uchun huquqiy bilimlarni o'yinlar orqali tushuntirish va mustahkamlash.

Ushbu yondashuvlar tizimli ravishda amalga oshirilsa, jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni saqlash, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirish va yoshlar kelajagini

mustahkamlashda muhim qadam qo'yilgan bo'ladi.

REFERENCES

1. Asosiy maqsad - aholining tinch va osyishta hayotini ta'minlash // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yilning 10-yanvar kuni mamlakatimiz tinchligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish borasidagi kelgusi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. URL:<http://www.uza.uz>.
2. A. X. Xalilov, Jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati, mazmun-mohiyati, maqsad va prinsiplari O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. — 2019. — № 3. B 45.
3. См.: Челябинова Э.И. Уголовно-правовой и криминологический анализ неисполнения обязанностей по воспитанию несовершеннолетних (по материалам Республики Дагестан): Дис...канд. юрид. наук: 12.00.08. — Махачкала, 2006. С-5.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.03.2017-yildagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-sonli Qarori
5. O'zbekiston Respublikasining 07.01.2008-yildagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-139-sonli Qonuni, 11-modda
6. O'zbekiston Respublikasining 07.01.2008-yildagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-139-sonli Qonuni, 10-modda
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.10.2018-yildagi "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta'minlashga doir ma'muriy va tashkiliy chora-tadbirlar, dasturiy-apparat va texnika vositalariga doir talablarni belgilash to'g'risida"gi 848-son Qarori
8. Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: yurid. fan. d-ri.... dis. - T., 2019. - 294 b. B. 217.
9. Juvenile Justice and Delinquency Prevention Act of 2002 // [Электрон манба]: <https://www.ojjdp.gov/about/ojjdpact2002.html>.
10. Federal juvenile delinquency code // [Электрон манба]: <https://www.justice.gov/jm/criminal-resource-manual-117-federal-juvenile-delinquency-code>.
11. Murodov A. Sh. "Ichki ishlar organlarining oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish", yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi-T., 2019. - B. 98.

12. Майоров В.И. Организация деятельности по охране общественного порядка в США, странах Европы и России: Учебное пособие. - Челябинск, 2003. - С. 17.
13. Кваши В.Е. Основные тенденции преступности в США // Научный портал МВД России. - 2012. - № 1. - С. 54.
14. Гордеев А.Ю. К вопросу о положительном опыте предупреждения преступлений в зарубежных странах//Matters of Russian and International Law. - 2017. - Vol. 7. - P. 117.
15. Гусейнов А.Б. Профилактика правонарушений несовершеннолетних за рубежом // [Электрон манба]:<https://www.twirpx.com/file/1172281/> (муружаат вақти: 17.01.2020 й.).
16. Дорожднова Д.Н. Регулирование вопросов по организации профилактики правонарушений несовершеннолетних в зарубежном законодательстве: история и современность // Вестник Саратовской государственной юридической академии. - 2017. - № 5 (118). - С. 195.
17. Кицул И.С., Перфильева Н.В. Отечественный зарубежный опыт профилактики наркомании среди населения // Сибирский медицинский журнал. - 2005. - № 5. - С. 6.
18. Менделевич В.В, Муганцева Л.В. Распространенность наркомании среди подростков в Российской Федерации//Наркология. - 2003. - № 6. - С. 2-6.
19. Головкина А., Потоцкий Н. Зарубежный опыт разработки программ профилактики правонарушений // [Электрон манба]: <https://pandia.ru/text/78/094/83215.php>.